ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

Abduraximov Orifxon Shokir o‘g‘li
abdurahimovorifxon0217@gmail.com
+99899 406-02-17

TURKIYANING NATO DOIRASIDAGI STRATEGIK AVTONOMIYASI: ALYANS ICHIDA MUSTAQIL TASHQI SIYOSAT EVOLYUTSIYASI (2010–2025)

Annotatsiya

Mazkur tezisda 2010–2025 yillar oralig‘ida Turkiyaning NATO doirasidagi strategik avtonomiyaga intilishi va alyans ichida mustaqil tashqi siyosat yuritish jarayonining asosiy yo‘nalishlari tahlil qilinadi. Tadqiqot strategik avtonomiya tushunchasining nazariy-metodologik asoslarini ochib berish, shuningdek, Turkiyaning geosiyosiy manfaatlari bilan NATO doirasidagi kollektiv majburiyatlar o‘rtasidagi muvozanatni aniqlashga qaratilgan.

Tezis doirasida Turkiyaning 2010-yillardan boshlab tashqi siyosatda faollashuvi, mintaqaviy inqirozlarga nisbatan mustaqil yondashuvi hamda muqobil siyosiy va harbiy-texnik hamkorlik aloqalarini kengaytirish jarayoni kompleks tahlil qilinadi. Xususan, Suriya inqirozi, Rossiya Federatsiyasi bilan harbiy-texnik hamkorlik (S-400 zenit-raketa tizimlari masalasi), AQSh va Yevropa Ittifoqi bilan munosabatlar kontekstida Anqaraning mustaqil qaror qabul qilish tendensiyalari strategik avtonomiya doirasida baholanadi [2, 118-121;10, 3-5]. Tadqiqot natijalari Turkiyaning NATO ichidagi o‘rni va rolini qayta talqin qilish, shuningdek, alyans doirasida strategik avtonomiya fenomenining ilmiy tahliliga hissa qo‘shishga xizmat qiladi.
Kalit so‘zlar:
Turkiya, NATO, strategik avtonomiya, tashqi siyosat, xavfsizlik, alyans.

So‘nggi o‘n yilliklarda xalqaro xavfsizlik tizimi tubdan transformatsiyaga uchrab, global va mintaqaviy darajadagi xavfsizlik muammolari murakkablashdi. Sovuq urushdan keyingi davrda shakllangan nisbatan barqaror kuchlar muvozanati XXI asrga kelib zaiflashib, yangi tahdidlar, xavfsizlik muammolari va mintaqaviy inqirozlar bilan almashdi. Ushbu sharoitda harbiy-siyosiy alyanslar, xususan NATO kabi kollektiv xavfsizlik tizimlari a’zo davlatlar manfaatlarini ta’minlashda muhim vosita bo‘lib qolayotgan bo‘lsa-da, ular doirasida davlatlarning mustaqil harakat qilish imkoniyatlari tobora dolzarb masalaga aylanmoqda [7, 10-15].
Ayniqsa NATO doirasida strategik avtonomiya masalasi alyans majburiyatlari va milliy suverenitet o‘rtasidagi murakkab muvozanatni aks ettiruvchi konseptual muammo sifatida ilmiy va siyosiy bahs-munozaralarning markazida turibdi. Davlatlarning strategik avtonomiya darajasi ularning tashqi siyosat va xavfsizlik sohasida qanchalik mustaqil qaror qabul qila olishini, shuningdek, alyans ichida o‘z milliy manfaatlarini ilgari surish imkoniyatlarini belgilab beradi. Shu nuqtai nazardan, strategik avtonomiya NATO a’zolari uchun alyansdan ajralish emas, balki kollektiv majburiyatlarni saqlagan holda milliy manfaatlarni maksimal darajada himoya qilish vositasi sifatida talqin qilinmoqda [8, 17-19].
Mazkur jarayonda Turkiya NATO ichida o‘ziga xos va murakkab o‘ringa ega davlat sifatida ajralib turadi [5, 91-96]. Geosiyosiy joylashuvi, mintaqaviy xavfsizlik tahdidlariga yaqinligi va ko‘p qirrali tashqi siyosiy manfaatlari Turkiyani alyans doirasida faol, biroq ba’zan mustaqil pozitsiya egallashga undaydi [1, 528-531]. 2010-yillardan boshlab Turkiya tashqi siyosatida kuzatilgan faollik, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikadagi inqirozlarga bevosita aralashuv hamda muqobil siyosiy va harbiy hamkorlik aloqalarining kengayishi Anqaraning NATO doirasidagi strategik yo‘nalishini qayta ko‘rib chiqishiga olib keldi [2, 118-120].

Ushbu holat Turkiyaning NATO doirasida qanchalik darajada mustaqil tashqi siyosat yurita olishi, strategik avtonomiya qaysi shakllarda namoyon bo‘layotgani va uning alyans ichidagi siyosiy muvozanatlarga ta’siri masalasini ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi. Mazkur tezis aynan shu masalalarni 2010–2025 yillar kesimida tahlil qilishni maqsad qilib, Turkiyaning NATO doirasidagi strategik avtonomiyasining evolyutsion xususiyatlarini yoritishga qaratilgan. Strategik avtonomiya tushunchasi va NATO doirasidagi talqinlar; Strategik avtonomiya tushunchasi zamonaviy xalqaro munosabatlar nazariyasida davlatlarning tashqi siyosat va xavfsizlik sohalarida mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini ifodalovchi muhim kategoriyalardan biri hisoblanadi [11, 1-4]. Ushbu tushuncha davlatning harbiy, siyosiy, iqtisodiy va diplomatik resurslarini o‘z milliy manfaatlari asosida erkin safarbar eta olish salohiyatini anglatadi [6, 5-10]. Strategik avtonomiya nafaqat tashqi bosimlardan nisbatan xoli bo‘lishni, balki xalqaro tizimdagi o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashuvchan va proaktiv javob qaytara olish imkoniyatini ham o‘z ichiga oladi [13, 126-128].

NATO doirasida strategik avtonomiya tushunchasi alohida va murakkab mazmunga ega. Chunki alyans kollektiv mudofaa tamoyiliga asoslangan bo‘lib, a’zo davlatlarning tashqi va harbiy siyosati muayyan darajada umumiy majburiyatlar bilan cheklanadi. Shu bois NATO kontekstida strategik avtonomiya to‘liq mustaqillik emas, balki alyans majburiyatlari bilan milliy manfaatlar o‘rtasidagi muvozanatni saqlagan holda qaror qabul qilish qobiliyati sifatida talqin etiladi. Bu jarayonda a’zo davlatlar umumiy xavfsizlik strategiyasiga sodiq qolgan holda, o‘z milliy xavfsizlik ustuvorliklarini ilgari surishga intiladi[4, 44].

Turkiya misolida strategik avtonomiya tushunchasi alyansdan ajralish yoki NATOga qarshi pozitsiya egallashni anglatmaydi [12, 4-7]. Aksincha, Anqara NATO a’zoligini saqlab qolgan holda, o‘z tashqi siyosiy va harbiy manevr imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan pragmatik yondashuvni shakllantirdi[14, 395-397]. Ushbu yondashuv Turkiyaning geosiyosiy joylashuvi, mintaqaviy xavfsizlik tahdidlari va ko‘p qirrali milliy manfaatlari bilan izohlanadi. Ayniqsa Yaqin Sharq, Qora dengiz va Sharqiy O‘rta yer dengizi mintaqalaridagi beqarorlik Turkiyani tezkor va mustaqil qarorlar qabul qilishga majbur etmoqda.

Strategik avtonomiya Turkiya tashqi siyosatida ko‘p vektorli yondashuv orqali namoyon bo‘lmoqda. Bu yondashuv Anqaraning NATO va AQSh bilan hamkorlikni davom ettirgan holda, Rossiya, Xitoy, Markaziy Osiyo davlatlari va mintaqaviy aktorlar bilan muqobil siyosiy, iqtisodiy va harbiy-texnik aloqalarni rivojlantirishida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bunday siyosat Turkiyaga xalqaro tizimda manevr imkoniyatlarini kengaytirish, tashqi bosimlarga nisbatan muqobil variantlarni shakllantirish imkonini bermoqda.

Shu tariqa, NATO doirasida Turkiyaning strategik avtonomiyasi alyans majburiyatlarini inkor etmasdan, balki ularni milliy manfaatlar bilan uyg‘unlashtirishga qaratilgan evolyutsion jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu yondashuv Turkiyaning alyans ichidagi rolini qayta talqin qilishga olib kelib, NATOning kelajakdagi ichki muvozanati va qaror qabul qilish mexanizmlariga ham bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda.

2010–2025 yillarda Turkiyaning NATO doirasidagi siyosiy evolyutsiyasi; 2010–2015 yillar Turkiyaning NATO doirasidagi siyosatida nisbatan muvozanatli va ehtiyotkor yondashuv hukmron bo‘lgan davr sifatida tavsiflanadi. Ushbu bosqichda Anqara alyansning an’anaviy strategik yo‘nalishlariga sodiqligini saqlab qolgan holda, mintaqaviy xavfsizlik masalalarida faol tashabbuskor sifatida namoyon bo‘ldi. Xususan, “Arab bahori” jarayonlari va Shimoliy Afrika hamda Yaqin Sharqdagi siyosiy beqarorlik Turkiyaning tashqi siyosiy faolligini kuchaytirdi. Suriya mojarosining boshlanishi esa Turkiya uchun bevosita milliy xavfsizlik tahdidlarini yuzaga keltirib, chegara xavfsizligi, terrorizm va qochqinlar oqimi kabi muammolarni keskinlashtirdi. Mazkur sharoitda Turkiya NATO bilan muvofiqlashgan holda harakat qilishga intilgan bo‘lsa-da, ayrim hollarda mustaqil diplomatik va harbiy choralar ko‘rishga majbur bo‘ldi.

2016-yildan keyingi davr Turkiyaning NATO doirasidagi siyosiy evolyutsiyasida burilish nuqtasi bo‘lib, strategik avtonomiya elementlarining aniqroq namoyon bo‘lishi bilan xarakterlanadi. 2016 yilgi harbiy to‘ntarishga urinishdan so‘ng Turkiya tashqi va xavfsizlik siyosatida suveren qaror qabul qilish masalasiga alohida e’tibor qaratdi. Aynan shu kontekstda Rossiyadan S-400

zenit-raketa tizimlarining xarid qilinishi Anqaraning mustaqil harbiy-texnik siyosat yuritish intilishining amaliy ifodasi sifatida baholanadi[10, 1-3]. Ushbu qaror NATO doirasida jiddiy siyosiy munozaralarga sabab bo‘lib, AQSh bilan munosabatlarda ishonch inqirozini yuzaga keltirdi [3, 50-55]. Shunga qaramay, Turkiya ushbu masalada milliy havo mudofaasi ehtiyojlarini ustuvor deb bilib, strategik avtonomiya yo‘nalishidan chekinmadi.

2020–2025 yillar davomida Turkiya NATO doirasida “mustaqil, biroq alyans majburiyatlariga sodiq” davlat modeli sifatida shakllana boshladi. Bu davrda Anqara kollektiv mudofaa tamoyillarini inkor etmagan holda, o‘z harbiy va diplomatik salohiyatini mustahkamlashga alohida e’tibor qaratdi. Milliy harbiy sanoatning rivojlanishi, xususan uchuvchisiz uchish apparatlari (dronlar) texnologiyalarining keng joriy etilishi Turkiyaning tashqi harbiy bog‘liqligini kamaytirishga xizmat qildi. Shu bilan birga, Qora dengiz, Kavkaz va Yaqin Sharq mintaqalarida olib borilgan faol diplomatik tashabbuslar Turkiyaning mintaqaviy aktor sifatidagi rolini kuchaytirdi.

Natijada, 2010–2025 yillar oralig‘ida Turkiyaning NATO doirasidagi siyosiy evolyutsiyasi bosqichma-bosqich strategik avtonomiyaga yo‘naltirilgan jarayon sifatida shakllandi. Ushbu evolyutsiya Turkiyaning alyansdan uzoqlashuvi emas, balki NATO ichida o‘z milliy manfaatlariga mos mustaqil tashqi siyosat yuritish modelini rivojlantirishga qaratilganini ko‘rsatadi. Bu holat NATOning ichki siyosiy muvozanati va qaror qabul qilish mexanizmlariga ham muayyan darajada ta’sir ko‘rsatmoqda [9, 4-5].

Xulosa qilib aytganda, 2010–2025 yillar davomida Turkiyaning NATO doirasidagi strategik avtonomiyasi izchil va bosqichma-bosqich evolyutsiya qilgan murakkab siyosiy jarayon sifatida namoyon bo‘ldi. Turkiya ushbu davr mobaynida alyansdan ajralish yoki kollektiv xavfsizlik majburiyatlarini inkor etish yo‘lini tanlamagan holda, o‘z milliy manfaatlari va xavfsizlik ustuvorliklariga mos mustaqil tashqi siyosat yuritishga intildi. Bu yondashuv Anqaraning NATO doirasidagi a’zoligini saqlagan holda, strategik manevr imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan pragmatik siyosatini aks ettiradi.

Turkiyaning strategik avtonomiyaga intilishi NATO ichida yangi siyosiy muvozanatlarning shakllanishiga olib keldi hamda alyans doirasida qaror qabul qilish jarayonlarining murakkablashuvini yuzaga chiqardi. Ayniqsa, xavfsizlik tahdidlariga nisbatan yondashuvlar, harbiy-texnik hamkorlik va mintaqaviy inqirozlarga munosabat masalalarida Turkiyaning mustaqil pozitsiyasi alyans ichidagi siyosiy kelishuv mexanizmlarini qayta ko‘rib chiqish zaruratini kuchaytirdi. Bu holat Turkiyaning NATOdagi rolini “faol, ammo mustaqil aktor” sifatida qayta talqin qilishga asos bo‘ldi.

Mazkur tezis natijalari shuni ko‘rsatadiki, Turkiyaning strategik avtonomiyasi NATOning zaiflashuvi emas, balki kollektiv xavfsizlik tizimi doirasida moslashuvchanlik va siyosiy diversifikatsiya jarayonining ifodasidir. Ushbu xulosalar NATO kelajagi, alyans ichidagi ichki muvozanat va strategik qarorlar qabul qilish mexanizmlarini tahlil qilishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi hamda strategik avtonomiya fenomenini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Aktürk, Ş.** “Turkey’s Balancing Act between NATO and Russia.” *International Affairs*, Vol. 98, No. 2, 2022, pp. 528–535.
2. Barkey, H. J. “Turkey’s Syria Policy: A Tragic Turn.” *Survival*, Vol. 56, No. 6, 2014, pp. 118–124.
3. Flanagan, S. J., et al. *Turkey’s Nationalist Course: Implications for the U.S.–Turkish Strategic Partnership*. RAND Corporation, 2020, pp. 45–58.
4. Keohane, R. O., Nye, J. S. *Power and Interdependence*. New York: Longman, 2012, pp. 7–18, 44–49.
5. Kirişci, K. *Turkey and the West: Fault Lines in a Troubled Alliance*. Washington DC: Brookings Institution Press, 2018, pp. 91–104.
6. Morgenthau, H. J. *Politics Among Nations: The Struggle for Power and Peace*. New York: Knopf, 2006, pp. 5–15, 175–182.

7. NATO. *NATO 2030: United for a New Era*. Brussels, 2021, pp. 10–15.
8. NATO. *Strategic Concept 2010*. Brussels, 2010, pp. 6–9, 17–19.
9. Republic of Turkey Ministry of Foreign Affairs. *Turkey's Relations with NATO*. Ankara, 2022, pp. 2–5.
10. Smith, M. A. *NATO, the EU and the European Security Architecture*. London: Routledge, 2017, pp. 61–74.
11. Stein, A., Butler, S. "Turkey, the S-400 and the Future of NATO." *Atlantic Council Issue Brief*, 2019, pp. 3–7.
12. Ülgen, S. "Can Turkey and NATO Overcome Mutual Distrust?" *Carnegie Europe*, 2020, pp. 4–8.
13. Waltz, K. N. *Theory of International Politics*. New York: McGraw-Hill, 1979, pp. 88–101, 126–128.
14. Yılmaz, S. "Turkey's Strategic Autonomy and NATO Relations." *Turkish Studies*, Vol. 21, No. 3, 2020, pp. 389–397.